

2020 yil yanvar-mart oyida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

Raqamlar:

• Sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)

3302,7

• sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi %

51,3

• iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi %

47,6

• hududiy korxonalarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi %


41,7

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020 yil yanvar-mart oylarida viloyatdagи korxonalar tomonidan 3302,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) 2,8% ga, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 7,0% ga, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 49,4% ga, o'sishi hisoblangan.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.

2019-yil yanvar-mart




Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020-yil yanvar-mart



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

2020-yilning yanvar-mart oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Samarqand viloyatida o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.



shundan:

Tog'-kon sanoatida texnik xizmatlar
tog'-kon sanoatining boshqa faoliyatlari

| | Mlrd. so'm | Jamiga nisbatan ulushi % |
|--|------------|--------------------------|
| Tog'-kon sanoatida texnik xizmatlar | 0,5 | 3,3 |
| tog'-kon sanoatining boshqa faoliyatlari | 14,6 | 96,7 |



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3108,3 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 0,5 % ni, oʼrta-yuqori texnologiyali 29,1 % ni, oʼrta-quyi texnologiyali - 7,4 % ni va quyi texnologiyali - 58,4 % ni tashkil etdi.

shundan:

| | Mlrd. soʻm | Jamiga nisbatan ulushi % |
|---|-------------------|---------------------------------|
| oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish | 1290,0 | 41,5 |
| toʼqimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish | 756,2 | 24,3 |
| mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, taʼmirlash va oʼrnatish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish | 685,8 | 22,1 |
| kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 57,8 | 1,9 |
| metallurgiya sanoati | 141,0 | 4,4 |
| koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 1,0 | 0,03 |
| yogʼoch va poʼkak buyumlar, pohol va toʼqish uchun materiallardan buyumlar, qogʼoz va qogʼoz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 42,7 | 1,4 |
| asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish | 4,7 | 0,2 |
| | 17,1 | 0,6 |

2020-yilning yanvar-mart oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

boshqa nometall mineral mahsulotlar
ishlab chiqarish

112,0

3,6

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,8 % ni) tashkil etdi.



shundan:

elektr energiyasini ishlab chiqarish,
uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va
havoni konditsiyalash tizimlari

Mlrd. so'm

*Jamiga nisbatan
ulushi %*

157,1

100,0

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya
tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.



shundan:

Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish,
yo'qotish, utilizatsiya qilish

Mlrd. so'm

*Jamiga nisbatan
ulushi %*

16,1


72,5

6,1

27,5



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi
(yanvar-mart)

Hajmi mld. so'm




Jamiga nisbatan ulushi % da

Ishlab chiqarish tarkibi %




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 20,5 mld. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali 693,5 mld. so'm (jamiga nisbatan ulushi 29,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 292,5 mld. so'm (jamiga nisbatan ulushi 7,4 %), qo'yi texnologiyali 2101,8 mld. so'm (jamiga nisbatan ulushi 58,4 %) ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1572,0 mld. soʻnni tashkil etdi va 2019 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 4,7 % ga o'sishini ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 47,6 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, foizda




2020-yilning yanvar-mart oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2019 yil yanvar-mart oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 62,2 % tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-mart oyida 61,5 % ni tashkil etganligini kuzatish mumkun.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 38,5 % ni (2019-yil yanvar-mart oyida 37,8 %) tashkil etdi.


2020 yil yanvar-mart oyida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish haimi (mlrd. so'm)



Bunga ko'ra, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiyoslaganda yigirilgan ip – 3,2 martaga, shag'al – 2,7 martaga, asfalt – 73,7 % ga o'sishi hisoblandi.


| Sanoat mahsulotlari | <i>2019 yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan</i> | <i>2020 yil yanvar-martda ishlab chiqarilgan</i> |
|--|--|--|
| O'simlik yog'i, t | 3641,0 | 3254,0 |
| Shag'al, ming t. | 6,6 | 17,9 |
| Po'latdan quvurlar ming t. | 6,3 | 9,5 |
| Tamaki (segaret), mln.dona | 2346,0 | 2199,0 |
| Asfalt, ming t. | 31,6 | 54,9 |
| Yigirilgan ip, t | 180,3 | 581,9 |
| Xo'jalik sovuni, t | 1942 | 1423 |
| Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t. | 9,12 | 5,1 |
| Paxta tolasi, ming t. | 17,8 | 4,7 |

Samarqand viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi. %



● Samarqand sh. ● Kattaqo'rg'on sh. ● Bulung'ur ● Jomboy ● Ishtixon ● Kattaqo'rg'on ● Narpay
 ○ Nurobod ● Oqdaryo ● Payariq ● Pastdarg'om ● Paxtachi ● Samarqand ● Tayloq ● Urgut
 ■ Qo'shrabot

**2020 yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, %
(2019 yil yanvar-mart oyiga nisbatan)**





**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar
mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1135,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 34,4 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning
umumi sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %**


2019 yil yanvar-mart

2020 yil yanvar-mart



█ Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
█ Viloyatning boshqa korxonalari

**2020 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab
chiqarish hajmi (mlrd. so'm)**




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 49,3 %), Jomboy (12,2 %), Samarqand (6,2 %), Urgut(6,2) va Narpay (4,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2020-yilning yanvar-mart oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1695,7 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.

2020 yilning yanvar-mart oylarida hududlar boʻyicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod, Qoʼshrabot, Paxtachi, Ishtixon, Bulung'ur Payariq va Oqdaryo tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Samarqand (96,4%), hamda Urgut (98,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqo'rg'on shahri (15,2 %), Naripay (10,2 %) va Jomboy (22,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**

Qayta ishlash sanoati

| <i>Sanoat mahsulotlari nomi</i> | <i>O'Ichov birligi</i> | <i>2020-yil yanvar-mart</i> | <i>O'sish sur'ati, %</i> |
|--|--|-----------------------------|--------------------------|
| Tarkibida ikkita ta'minlovchi element–azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar |  ming tonna | 0,46 | 13,3 ↓ |
| Aroq |  ming l. 100% spirit | 41,1 | 93,8 ↓ |
| Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingen spirit nastoykalari, konyak spirtidan tashqari |  ming l. 100% spirit | 41,3 | 94,7 ↓ |
| Uzum vinosi |  ming l. | 438,9 | 118,0 ↑ |
| Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari) |  ming l. | 4043,0 | 114,3 ↑ |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni |  ming tn. | 42,6 | 111,1 ↑ |

2020-yilning yanvar-mart oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Birinchi navli undan
tayyorlangan
bug'doy noni
(buxanka), og'irligi
600 g.



tn. 372,11 151,4 ↑

Tozalangan paxta
yog'i va uning
fraksiyalari (kimyoviy
modifikatsiya
qilinganlaridan
tashqari)



tn. 3254,0 89,4 ↓

Paxta tolasi



ming tn. 4,7 26,3 ↓

Paxta chigit



ming tn. 7,0 29,4 ↓

Paxta tiviti (lint)



tn. 279,3 17,3 ↓

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi



mln.kVt/s 8,02 59,9 ↓

Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)




ming Gkal. 22,8 104,6 ↑

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 6280 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1524 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 24,3 %) Samarqand shahriga, 899 tasi (14,3%) Urgut tumaniga, 562 tasi (8,9 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020 yil 1 aprel holatiga)



2020-yilning yanvar-mart oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2020 yil yanvar-mart oylarida viloyatda 420 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko‘pi Samarqand shahri (13,6 foiz), Urgut tumani (11,9) va Pastdarg‘om (9,3 foiz) tumaniga to‘g‘ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik
(2020 yil 1 aprel holatiga)**



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur asosida kiritilgan 29 ta loyiha bo‘yicha 132,9 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo‘lib, 1,3 mln. AQSh dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 22 ta yangi ish o‘rinlar yaratildi.

O‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2020 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 8,9 martaga pasayishi kuzatildi. Shu bilan birga, 2019 yil yanvar- martga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport hajmining 18,8 foizga kamayganligi kuzatildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliylashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**
(yanvar-mart oylari uchun)

| | 2019 yil | 2020 yil |
|---|----------|----------|
| Loyihalar soni, <i>birlik</i> | 27 | 29 |
| Korxonalar soni, <i>birlik</i> | 27 | 14 |
| Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i> | 97,9 | 132,9 |
| Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i> | 1,6 | 1,3 |
| Yaratilgan yangi ish o'rnlari, <i>birlik</i> | 248 | 22 |

Sanoat statistikasi bo'limi
E.A.Qo'qonov
Tel: (66) 235-06-80